

## OTM TALABALARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI TAHLILI

**Kazakov Shavkat Norqobilovich**  
Nizomiy nomidagi TDPY, dotsnt v.b.

**Ne'matov Xumoyun**  
TDPU, talabasi

**Annotatsiya:** Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini mukammal ketma - ketlik va uzluksizlik asosida amalga oshirish muhimdir. Ushbu maqolada OTM talabalarida jismoniy madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari kasbiy kompetentini takomillashtirishning o'ziga xosligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentsiya, jismoniy faollik, jismoniy madaniyat, sportchilar tayyorlash, jismoniy madaniyat sohasi, ilmiy – metodik ta'minot, mutaxassislar, kasbiy mahorati.

Bugungi kunda inson faoliyatining jismoniy madaniyat bilan bog'liq bo'lmagan biror bir jabhasini (sohasini) topish amri maholdir, chunki jismoniy madaniyat va sport — umuman olganda jamiyatning va alohida har bir insonning e'tirof etilgan moddiy va ma'naviy boyligi hisoblanadi. So'nggi yillarda jismoniy madaniyat to'g'risida nafaqat mustaqil ijtimoiy fan, balki shaxsning barqaror fazilati (xususiyati) sifatida ham tez-tez aytilishi bejiz emas albatta. Shu bilan birga ruhiyat va tana madaniyati muammolari garchi qadimgi tamaddun davrlaridan beri dolzarb bo'lib kelsada, shaxsning jismoniy madaniyati masalasi hali ham to'laqonli o'rganilmagan jihatlari mavjud [85, 86].

Jismoniy madaniyat umumiy madaniyat fenomenisifatida betakroridir. V.K. Balsevichning [157] fikricha, aynan u insonning rivojlanishida ijtimoiy va biologik xususiyatlar uyg'unligini ta'minlovchi tabiiy ko'prik vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, N.N. Viziteyning [36] isbotlashicha, jismoniy madaniyat insonda shakllanadigan madaniyatning dastlabki va tayanch turi hisoblanadi. Unga duallik xos bo'lib, insonning organizmi, psixikasi, maqomiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tarixan jismoniy madaniyat jamiyatning amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllangan bo'lib, dastlab, u yosh avlodning to'laqonli jismoniy hamda aholining yoshi katta qatlamining mehnatga doir tayyorgarligini nazarda tutgan. Ta'lim va tarbiya tizimining takomillashgani sayin jismoniy madaniyat harakatlanish ko'nikmasi va malakasini shakllantirishning tayanch omili bo'lib xizmat qildi [86].

Jismoniy madaniyat mazmun-mohiyatini anglashning yangicha sifatli bosqichi intellektual, axloqiy, estetik tarbiyaning samarali vositasi sifatida insonning manaviy olamiga ta'sir etish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Va agarda jismoniy mashqlarning sog'liqqa hamda insonning jismoniy rivojlanishiga benihoyat ta'sir etishi to'g'risida ortiqcha fikr bildirishning zarurati bo'lmasa-da, ularning ma'naviyatni rivojlantirishga bo'lgan ta'siri masalasiga alohida izoh berishni va asoslashni talab etadi.

Insonning har tomonlama rivojlanishi uchun jismoniy madaniyatning ahamiyati borasidagi muhim asos mazkur fenomenning naqadar qadriyatli salohiyatga ega ekanligini anglab olish yetarlidir.

Bugungi kundagi ijtimoiylashuv sharoitidagi jismoniy madaniyat va sportning qadriyatli salohiyati haqida soʻz borar ekan, qadriyatlarning ikki xil darajasini nazarda tutmoq lozim –ijtimoiy va shaxsga oid–hamda ijtimoiy qadriyatlarni har bir shaxsning xususiy qadriyatiga aylantirish mexanizmini tasavvur qilish zarur[25, 36, va boshq.].

Jismoniy madaniyatning ijtimoiy qadriyatlariga insoniyatning asrlar mobaynida jamlagan maxsus tajriba va bilimlar, jismoniy mashqlar texnikasi, sport tayyorgarligi texnologiyalari, sogʻlomlashtirish metodikasi, motor faoliyatining eng sara namunalari, sport sohasidagi yutuqlar, yaʼni insonlarning jismoniy chiniqishi, sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan barcha sayi-harakatlari kiradi. Ayniqsa jamiyat uchun intension qadriyatlarning muhimligini taʼkidlash kerak, chunki ular jismoniy madaniyat va sportning boshqa ijtimoiy hodisalar orasidagi ahamiyatini belgilab beradi. Moliyalashtirish, huquqiy negiz, ijobiy ijtimoiy fikrning shakllanganligi jismoniy madaniyatning jamiyatdagi intension qadriyatlari muhimligi darajasini tavsiflovchi omillar hisoblanadi. Jamiyatning madaniyati va tamadduni qay darajada rivojlanganligiga mazkur koʻrsatkichlarga binoan baho berish mumkin.

Jismoniy madaniyat qadriyatlarini oʻzlashtirishning xususiy darajasi insonning jismoniy barkamollik sohasidagi bilimlari, tayanch-harakat koʻnikmalari va malakalari, sogʻlom turmush tarzini mustaqil tashkil etish, jismoniy madaniyat va sport faoliyati mashgʻulotlariga ijtimoiy-psixologik koʻrsatmalar orqali yoʻnaltirish bilan belgilanadi. Shaxs uchun jismoniy madaniyatning mavjud qadriyatlarini oʻzlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular insonlarga bugungi jamiyat hayotida tez-tez uchrab turadigan favqulodda vaziyatlarda (kasalliklar, jarohatlar, ekologik inqirozlar, avariya) yordam beradi. Jismoniy madaniyat va sport faoliyati sposobstvuet mobilizatsii organizmning funksional, psixologik va jismoniy imkoniyatlarini safarbar qilishga qodir.

Jismoniy madaniyat toʻgʻrisidagi bilimlarni rivojlantirish uning ijtimoiy mazmun-mohiyatini anglab olishning asosini tashkil etadi. Mazkur mavzuga oid birmuncha tadqiqotlar orasida V.K. Balsevichning ishi [10-18] katta qiziqish uygʻotadi. Uning fikricha, jismoniy madaniyat sohasidagi bilimlar tasnifining 4 ta darajasi mavjud: 1) ijtimoiy va biologik komponentlar toʻgʻrisidagi bilimlar hamda ularning shaxsning jismoniy tarbiyasi jarayonidagi oʻzaro uygʻunligi; 2) jismoniy madaniyat nazariyasini shakllantirish bilan bogʻliq boʻlgan bilimlarning fundamental va texnologik jihatlari; 3) xususiy ilmiy fanlar; 4) jismoniy madaniyatga oid bilimlarning insoniy bilimlar bilan oʻzaro uzviy bogʻliqligi, jismoniy madaniyatning umumiy madaniyat bilan bogʻliqligi (oʻta muhim daraja).

Zamonaviy tadqiqotlarda taʼkidlanishicha, insonning jismoniy madaniyati shakllanishi muammosini faqatgina ijtimoiy va biologik mezonlarning yaxlidligi va oʻzaro uygʻunligi gʻoyasi asosida samarali hal etilishi mumkin. Madaniyatning boshqa sohalaridan farqli oʻlaroq mazkur komponentlarni insonda yagona bir butun holatda bogʻla, ularning uygʻunlashuvi sohasi hisoblanadi hamda ular oʻrtasidagi doimiy ravishda yuzaga keladigan ziddiyatlarni qadriyatli-yoʻnaltirilgan yechim sohasidir.

Jismoniy madaniyatning shakllanishiga jamiyatda rivojlanayotgan obektning sifat holatining almashinishi sifatida qaralmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot taʼsiri ostida unda murakkab oʻzgarishlar jarayoni amalga oshmoqda. Jismoniy madaniyat jamiyat va shaxsning obʼektiv ehtiyoji, ijtimoiy qadriyat hamda madaniyatning muhim ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Jismoniy madaniyatning mazmun-mohiyati jismoniy fazilatlarining psixik va intellektual xarakterdagi qobiliyatlar bilan uygʻunlashib ketishiga oid boʻlgan talablarga nisbatan takomillashib bormoqda. Undagi faoliyat ijodiy xarakterga ega boʻlib bormoqda. Jismoniy madaniyat ijtimoiy-iqtisodiy tizimning rivojlanib borayotgan ehtiyojlariga xos ravishda moslashib boradi. Shu sababli uning atrofida inson faoliyatining oʻziga xos turli-tuman koʻrinishlari shakllanib boradi. Jismoniy madaniyat komponentlari oʻrtasidagi munosabatlar takomillashib boradi. Jismoniy madaniyat jismoniy tarbiya tizimi rivojlanganligining qonuniy natijasi sifatida murakkab tarkibiy-funksional tizimga aylanib boradi.

Bugungi jamiyatda jismoniy madaniyatning o'ziga xos ijtimoiy o'rining obektiv ko'rsatkichi sifatida jamoat fikrining ijtimoiy tahlili muayyan darajada xizmat qilishi mumkin. Uning natijalari turli muammolarni (salomatlik, ommaviy jismoniy madaniyat, turmush tarzi va boshqalar) o'z ichiga olgan holda ilmiy adabiyotlarda tez-tez o'z aksini topmoqda [137, 140 va boshq.]. Aksariyat ishlarda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari taqdim etilgan.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. А.А. Валиев. Ватанпарвар ёшлар тарбиясида ёшлар тарбиясида иймон-этикод туйғуларини шакллантириш // Таълим ва инновациялар тадқиқотлари. 2022. № 7. - Б. 143.
2. С.Е. Банников, С. А. Абезин, А.Р. Валеев. Роль спорта в формировании у студентов базовых духовно-нравственных качеств XXI века // инновационный потенциал молодежи: культура, духовность и нравственность. 2019.-с.71. (68-72 б)
3. Белкин А.С. Педагогическая компетентность [Текст]: учебное пособие / А.С.Белкин, Белкин В.В. – Екатеринбург: Учебная книга, 2003.-С.188.
4. Кузьмина, Н.В. Предмет акмеологии [Текст] / Н.В. Кузьмина. – СПб. : Политехника, 2002. –С.188
5. Ашмарин, Б. А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании / Б. А. Ашмарин. – М.: Просвещение, 1978. – 160 с.
6. Бабаева, Т. И. Методические советы к программе «Детство» / Т. И. Бабаева, З. А. Михайлова. - СПб.: МБЧ «Детство-пресс», 2001. – 304 с.